O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 3 - oktabr 317-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli qarorining “Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish” tartibini tasdiqlashga doir 3-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Raqobatri rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2023-yil 11-sentabrdagi № 301-11-0-Q/23 sonli xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati hududida joylashtirilgan (o‘rnatilgan) tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni xatlovdan o‘tkazish tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Farg‘ona viloyatida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Farg‘ona viloyati tuman(shahar) hududida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha Ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xatlov natijalari bo‘yicha xulosa dalolatnoma na’munasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazishga tuman va shahar hokimliklari ma’sul etib belgilansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining

o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqov zimmalariga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 3-oktabrdagi
317-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati hududida joylashtirilgan (o‘rnatilgan) tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari)ni xatlovdan o‘tkazish

TARTIBI

1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Tartib ishchi guruh tomonidan Farg‘ona viloyati hududida joylashtirilgan (o‘rnatilgan) barcha turdagi tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) ularning qonuniyligi, turlari, o‘lchami, joylashuvi, mansubligi, egasi va boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda identifikatsiya qilish maqsadida xatlovdan o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

muvofiqlashtiruvchi guruh — Farg‘ona viloyat hokimining tegishli qaroriga asosan tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida mutasaddi idora vakillaridan tuzilgan maxsus guruh;

ishchi guruh — tuman (shahar) hokimining tegishli qaroriga asosan tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazishni amalga oshirish maqsadida mutasaddi idora vakillaridan tuzilgan maxsus guruh;

tashqi reklama — nomuayyan shaxslar doirasi ko‘rishi uchun mo‘ljallangan, tashqi reklama va axborot ob’ektlarida (konstruksiyalarida) joylashtiriladigan grafikli, matnli yoki boshqa reklama;

reklama joyi (tashqi reklama va axborot ob’ekti (konstruksiyasi) o‘rnatiladigan joy) — tashqi reklama va axborot ob’ekti (konstruksiyasi) o‘rnatiladigan maxsus ajratilgan va (yoki) berilgan hudud (yer, asfalt, yashil hudud va boshqalar), bino, inshoot sirtqi qismining muayyan yuzasi;

reklama joyining pasporti — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tomonidan beriladigan hujjat bo‘lib, ushbu hujjat yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) unda ko‘rsatilgan yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga, mulk shaklidan qat’i nazar, o‘rnatish huquqini tasdiqlaydi;

reklama vositalari — reklamadan foydalanuvchiga reklamani yetkazish uchun foydalaniladigan vositalar (ob’ektlar, konstruksiyalar);

xulosa dalolatnomasi — tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) identifikatsiya qilish maqsadida ishchi guruh tomonidan o‘tkazilgan xatlov natijalari qayd etiladigan va tasdiqlanadigan maxsus blanka.

3-bob. Tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari)ni xatlovdan o‘tkazish tartibi

3. Ishchi guruh tomonidan Farg‘ona viloyatining ma’muriy hududlari (shahar, tumanlari) bo‘yicha xatlovdan o‘tkazish yo‘nalish jadvali va muddatlari ishlab chiqiladi.

4. Xatlov uch bosqichda o‘tkaziladi.

4.1. **Birinchi bosqich:**

Farg‘ona viloyatida o‘rnatilgan tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini beruvchi hujjatlar (*pasport, guvohnoma va boshqa huquqni belgilovchi hujjatlar*) to‘g‘risidagi mavjud ma’lumotlar asosida mavjud tashqi reklama va axborot ob’ektlarining (konstruksiyalarining) joylashuv xaritasi va ularning reestri shakllantiriladi.

Mazkur ma’lumotlar asosida ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladigan xatlov yo‘nalishlari (ko‘cha, hudud yoki massiv) belgilab olinadi.

Belgilangan xatlov yo‘nalishlari asosida ishchi guruh a’zolari joyiga chiqqan holda xatlov ishlarini amalga oshiradi.

4.2. **Ikkinchi bosqich:**

Xatlov ishlari tashqi reklama va axborot ob’etalari (konstruksiyalari) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan maxsus elektron dastur ilova orqali amalga oshiriladi.

Bunda, ishchi guruh a’zolari belgilangan xatlov yo‘nalishlari asosida manzillarga chiqqan holda o‘rganish o‘tkazadi va ushbu manzillarda joylashtirilgan (o‘rnatilgan) tashqi reklama va axborot ob’ektlarining (konstruksiyalarining) turlari, o‘lchami, joylashuvi, mansubligi, egasi, manzillari (geolokatsiyalari) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, foto suratlari va boshqa ko‘rsatkichlarini hamda tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) egasi tomonidan (*tashqi reklama va axborot ob’etalari (konstruksiyalari) egasi*

mavjud bo‘lganda) taqdim etiladigan pasport ma’lumotlari maxsus elektron ilovada qayd etadi.

Ishchi guruh a’zolari tomonidan maxsus elektron ilovada qayd etib borilgan ma’lumotlar asosida Farg‘ona viloyatida joylashtirilgan tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) to‘g‘risidagi ma’lumotlarning elektron bazasi va ularning joylashuv xaritalari elektron tizimda real vaqt rejimida avtomatik ravishda shakllantirilib boriladi.

4.3. **Uchinchi bosqich:**

Ishchi guruhlar tomonidan joyiga chiqqan holda o‘tkazilgan xatlov natijalari asosida maxsus elektron ilovada qayd etilgan ma’lumotlar umumlashtirilib, yagona ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi va ushbu ma’lumotlar bazasi, mavjud ma’lumotlar asosida dastlab shakllantirilgan mavjud tashqi reklama va axborot ob’ektlarining (konstruksiyalarining) joylashuv xaritasi va ularning reestrlari bilan solishtiriladi.

Solishtirish natijalari asosida ishchi guruhlar tomonidan har bir tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) bo‘yicha alohida xulosa dalolatnomasi rasmiylashtiriladi va ishchi guruh a’zolari tomonidan tasdiqlanadi.

Mazkur xulosa kelgusida ushbu tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) uchun berilgan tashqi reklamani joylashtirish huquqini beruvchi hujjatlarning amal qilish muddatlarini uzaytirish va yangi shakldagi pasport rasmiylashtirishda inobatga olinadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

6. Ishchi guruh a’zolari tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) egalari (ularning vakillari) bilan munosabatlarda o‘zi ishlaydigan idora manfaatlarini ifoda etadi.

7. Ishchi guruh a’zolari tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) haqiqiy holatini aniqlash hamda identifikatsiya qilish natijalari bo‘yicha bergan ma’lumotlar va xulosasi uchun javobgar hisoblanadi.

8. Ishchi guruh a’zolariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

9. O‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida sodir etilgan huquqbuzarliklari uchun ishchi guruh a’zolari amaldagi qonunchilikka asosan javobgar bo‘ladi.

10. Ishchi guruh a’zolariga xatlov davomida tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) egalari va ular joylashgan manzilda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub’ektlarining qonuniy faoliyatiga aralashish, kundalik ish faoliyatini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish taqiqlanadi.

11. Ushbu Tartib talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 3-oktabrdagi
317-11-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatida tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Ishchi guruh tarkibi

1.	X. Isaqov	–	Farg‘ona viloyati hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, – Ishchi guruh rahbari
2.	A.Xolmatov	–	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Farg‘ona viloyati xududiy boshqarmasi boshlig‘i
3.	Z.Ro‘zaliyev	–	Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i
4.	A.Axmedov	–	Viloyat IIBB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i
5.	A. Rahmonov	–	Farg‘ona viloyati bosh arxitektori
6.	M.Mamatxanov	–	Viloyat Soliq boshqarmasi boshlig‘i
7.	Sh.Axmedov	–	Viloyat Savdo-sanoat palatasi boshlig‘i
8.	N.Mashrapov	–	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
9.	*Lavozimga ko‘ra*	–	Tashqi reklama sohasida nodavlat tashkilot vakili, zaruratga ko‘ra
10.	*Lavozimga ko‘ra*	–	Viloyat hokimligining tashqi reklamani muvofiqlashtirish bo‘linmasi rahbari, *Ishchi guruh kotibi*

Izoh: Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 3-oktabrdagi
317-11-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Farg‘ona viloyati tuman(shahar) hududida tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha Ishchi guruh tarkibi

1.	*Lavozimga ko‘ra*	–	Farg‘ona viloyati tuman(shahar) hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Ishchi guruh rahbari
2.	*Lavozimga ko‘ra*	–	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Farg‘ona viloyati xududiy boshqarmasi vakili
3.	*Lavozimga ko‘ra*	–	tumani (shahar) Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
4.	*Lavozimga ko‘ra*	–	tumani (shahar) IIBB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i
5.	*Lavozimga ko‘ra*	–	tumani (shahar) obodonlashtirish bo‘limi boshlig‘i
6.	*Lavozimga ko‘ra*	–	tumani (shahar) Soliq bo‘limi boshlig‘i
7.	*Lavozimga ko‘ra*	–	tumani (shahar) Kadastr bo‘limi boshlig‘i
8.	*Lavozimga ko‘ra*	–	tumani (shahar) hokimligining qurilish bo‘limi rahbari, Ishchi guruh kotibi

Izoh: Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 3-oktabrdagi
317-11-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Xatlov natijalari bo‘yicha
XULOSA DALOLATNOMASI

№	Reklama vositasi to‘g‘risida ma’lumot	Qayd etilgan holat
1	Tashqi reklama ob’ektining joylashgan* manzili *(MFY, ko‘cha, mo‘ljal)*	
2	Tashqi reklama ob’ektining joylashuvi *(chorraxada, tom ustida, ajratuvchi bo‘lakda, bino tom, oldi, yon tomonida, yo‘l qatnov qismida va boshqa)*	
3	Tashqi reklama vositasining mavjud egalikni belgilovchi hujjati *(pasport, guvoxnoma, sertifikat, ruxsatnoma)*. Mavjud bo‘lsa, hujjat nomi, berilgan sanasi va raqami	
4	Tashqi reklama vositasining turi**	
5	Tashqi reklama vositasining xajmi *(eni va bo‘yi o‘lchamlari, umumiy xajmi kv.metrda)*	
6	Tashqi reklama vositasining hozirgi holati *(qoniqarli yoki qoniqarsiz)*	
7	Reklama vositasining mansubligi *(kimga tegishliligi, xususiy, davlat, idora)*	
8	Tashqi reklama ob’ektining egasi to‘g‘risida ma’lumotlar *(sub’ekt nomi, rahbari ism-sharifi, tel.raqami, joylashgan manzili yoki jismoniy shaxs)*	
9	Tashqi reklama vositasida mavjud reklama turi *(Ijtimoiy (mazmuni), tijoriy (nomi), bo‘sh turgan)*	
10	Tashqi reklama vositasida uning egasi to‘g‘risida ma’lumot mavjudligi *(sub’ekt nomi, logotipi, telefon raqami, mavjud emas)*	
11	Boshqa ma’lumotlar *(joriy holati, elektr energiyasiga ulanganligi va boshqa)*	
12	Tashqi reklama ob’ektining VM 104-sonli qarori talablariga muvofiqligi *(ilovaga muvofiq aniqlanadi)*	

** Uning joylashuvi bo‘yicha geolokatsiyasi va koordinatlari olinadi va elektron reestrda qayd etiladi.*

*** Tashqi reklama vositasining turi – pilon, yer usti va devor pannosi, prizmatron, tortib bog‘lanadigan reklama ob’ekti, bayroqli konstruksiya, bilbord, video LED ekran, elektron displeylar, shitli reklama konstruksiyalari, pillar, siti format, siti format plyus, senior, stela, afishali stend, katta xajmli konstruksiyalar, brandmauerli panno, tom usti konstruksiyasi, media fasad, vitraj, markiza.*

Ishchi guruh a’zolari: *(ish joyi, lavozimi, ism-sharifi, imzo)*